


**SURXONDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SURXONDARYO VILOYATIDA  
XIZMATLAR SOHASINING  
RIVOJLANISHI**



**2023- YIL  
YANVAR-MART**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va jamiyatda ro‘y berayotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta‘sir qiladi, bu esa ushbu masalaning dolzarbligi va ahamiyatini belgilaydi.

## 2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

16 656 birlik

65,2 %


Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati

94,3 %

2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **25 539** birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **16 656** birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **65,2 %** ni tashkil etdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati **94,3 %** ni tashkil etgan.

**2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (% da)**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining (**21 526** birlikni) **12 738** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi **59,2 %** ni tashkil etdi.



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

**Xizmatlar** iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

**Xizmatlar oldi-sotdi obyekt**i sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo'ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lamini, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

**XIZMATLAR  
SOHASI**

<b>2023- y.</b>	<b>63,2 %</b>	<b>Xizmatlar sohasida kichik biznesning ulushi</b>
<b>2022- y.</b>	<b>66,8 %</b>	

<b>Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'mda</b>	<b>2 171,3</b>	<b>2023- y.</b>
	<b>1 893,9</b>	<b>2022- y.</b>

<b>2023- y.</b>	<b>1220,5</b>	<b>Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar, ming so'mda</b>
<b>2022- y.</b>	<b>1030,3</b>	

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 434,8** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilga (**112,1 %**) nisbatan o'sish sur'ati **109,3 %** ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-mart)

	Hajm, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>3 434,8</b>	<b>100,0</b>	<b>109,3</b>
Termiz sh.	992,1	28,9	114,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	134,0	3,9	104,8
Angor	141,7	4,1	105,7
Boysun	104,6	3,0	104,9
Bandixon	73,8	2,1	104,0
Muzrabot	152,1	4,4	105,1
Denov	437,9	12,8	110,8
Jarqo'rg'on	202,4	5,9	108,5
Qumqo'rg'on	214,9	6,3	108,7
Qiziriq	130,8	3,8	104,9
Sariosiyo	198,1	5,8	105,9
Termiz	149,3	4,3	106,9
Uzun	139,9	4,1	105,5
Sherobod	182,1	5,3	105,9
Sho'rchi	181,1	5,3	109,5

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining  
asosiy  
ko'rsatkichlari**

2023- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1220,5** ming so'mga yetdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **106,8** % ni tashkil etgan.

*O'sish sur'ati*


*Xizmatlar hajmi (mln. so'mda)*

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-mart)	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	1220,5	106,8
Termiz sh.	5049,0	111,1
Oltinsoy		
Angor	711,1	102,7
Boysun	1006,5	103,3
Bandixon	855,5	103,0
Muzrabot	911,2	101,4
Denov	1009,4	102,9
Jarqo'rg'on	1006,5	108,2
Qumqo'rg'on	869,2	106,1
Qiziriq	859,8	106,2
Sariosiyo	1076,8	102,9
Termiz	888,1	103,5
Uzun	1810,3	104,4
Sherobod	761,1	103,3
Sho'rchi	876,6	103,7

## Xizmatlar sohasida kichik biznes

Kichik biznes sektori iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta‘minlashga yordam beradi.

*Xizmatlar hajmi (mlrd. so‘mda)*




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi **2 171,3** mlrd. so‘mga teng bo‘lib, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **63,2** % ni shu jumladan, **26,5** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida kichik biznesning eng katta hajmi Termiz shahrida qayd etildi – **429,5** mlrd. so‘m.

### Xizmatlar sohasida kichik biznesning ulushi

*(2023- yil yanvar-mart)*






Ko'rib chiqilayotgan davrlarda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish omiliga moliyaviy xizmatlar (**841,9** mlrd. so'mga), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**176,1** mlrd. so'mga), ta'lim xizmatlari (**136,0** mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining o'sishi ta'sirini ko'rsatdi.

## 2022-2023- yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm;



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-mart)

X  
I  
Z  
M  
A  
T  
L  
A  
R  
  
S  
O  
H  
A  
S  
I



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari eng katta ulushni egallaydi. 2023- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlarining ulushi **34,5** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar (**24,5** %), transport (**14,0** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,1** %), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**4,0** %) yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Kam hajmga ega Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar qayd etildi, ushbu xizmat turining ulushi **1,4** % ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2022- y. yanvar-mart	2023- y. yanvar-mart	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>3 434,8</b>	<b>2 833,7</b>	<b>109,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	134,3	176,2	128,1
Moliyaviy xizmatlar	610,8	841,9	123,6
Transport xizmatlari	416,5	481,9	106,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	388,8	443,1	100,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	90,7	109,0	102,4
Savdo xizmatlari	1 042,9	1 185,0	100,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	66,9	75,6	105,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	94,8	136,0	143,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	44,8	52,9	102,6
Ijara xizmatlari	63,8	64,5	94,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	76,4	86,2	100,1
Shaxsiy xizmatlar	80,7	101,1	103,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	35,7	47,9	124,7
Boshqa xizmatlar	75,4	76,6	94,9


## Savdo xizmatlari

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida ularning savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi ulushi (**47,3 %** yoki **7877** birlik) ustunlik qilmoqda. Ulardan **99,8 %** ni (**7865** birlik) kichik biznes subyektlari tashkil etadi.

2023- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi **1 185,0** mlrd. so'mga yetdi.

*Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)*



## Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-mart)

S  
a  
v  
d  
o  
  
x  
i  
z  
m  
a  
t  
l  
a  
r  
i

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar **82,7 %**

Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari **13,1 %**

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar **4,2 %**

### Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, (2023- yil yanvar-mart, % da)

	<i>Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar</i>	<i>Ulgurji savdo xizmatlari</i>	<i>Chakana savdo xizmatlari</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	4,2	13,1	82,7
Termiz sh.	5,5	17,2	77,3
Oltinsoy	3,7	6,0	90,3
Angor	3,6	4,0	92,4
Boysun	4,0	2,0	94,0
Bandixon	4,1	0,4	95,5
Muzrabot	2,8	36,3	60,9
Denov	5,4	18,3	76,3
Jarqo'rg'on	4,2	4,3	91,5
Qumqo'rg'on	4,3	2,8	92,9
Qiziriq	3,2	23,9	72,9
Sariosiyo	3,9	14,3	81,8
Termiz	3,9	7,9	88,2
Uzun	3,9	3,0	93,1
Sherobod	3,5	18,7	77,8
Sho'rchi	3,2	5,6	91,2

## Hududlar kesimida savdo xizmatlari hajmi

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. soʻmda)

Surxondaryo viloyati	1185,0	Qumqoʻrgʻon	68,8
Termiz sh.	213,7	Angor	62,3
Denov	161,1	Oltinsoy	61,9
Muzrabot	77,4	Qiziriq	58,5
Sherobod	75,1	Uzun	56,9
Sariosiyo	74,2	Termiz	56,6
Jarqoʻrgʻon	71,5	Boysun	42,0
Shoʻrchi	71,2	Bandixon	33,8

## Transport xizmatlari




2023- yil 1- yanvar-mart holatiga koʻra, tashish va saqlash bilan bogʻliq faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **751** birlikni yoki ularning umumiy sonining **4,5 %** ini tashkil etdi. Ulardan **740** birlik (**98,5 %**) kichik biznes subyektlari hisoblanadi.


**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi **481,9** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan ushbu xizmat turining oʻsish surʼati **123,6** % ni tashkil etdi.

*Xizmatlar hajmi mlrd. soʻmda)*



*Turlari boʻyicha  
transport  
xizmatlarining  
tarkibi  
(2023- yil yanvar-  
mart)*



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi ustunlik qilmoqda – **92,0** %. Yordamchi transport faoliyati eng kichik ulushni egallaydi – **8,0** %.

Transport xizmatlari (2023- yil yanvar-mart)	Hajm, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Surxondaryo viloyati <sup>1)</sup>	481,9	100,0	109,3
Termiz sh.	85,6	17,8	113,4
Oltinsoy	22,3	4,6	102,2
Angor	25,0	5,2	104,6
Boysun	20,2	4,2	103,8
Bandixon	15,4	3,2	102,7
Muzrabot	25,6	5,3	104,8
Denov	54,5	11,3	107,4
Jarqoʻrgʻon	37,4	7,8	104,0
Qumqoʻrgʻon	30,3	6,3	104,9
Qiziriq	22,7	4,7	100,9
Sariosiyo	30,9	6,4	101,3
Termiz	28,5	5,9	109,1
Uzun	23,7	4,9	102,2
Sherobod	29,5	6,1	102,5
Shoʻrchi	30,3	6,3	114,5

<sup>1)</sup> hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2023- yil yanvar-mart oylarida Termiz shahri (**111,8 %**) va Denov tumanida (**106,4 %**) transport xizmatlari boʻyicha yuqori oʻsish surʼatlari qayd etildi.




## Avtomobil transporti xizmatlari

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlari kiradi.


2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **443,1** mlrd. so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **100,9** % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,9** % ni tashkil etdi.

### Avtomobil transport hajmi (mlrd. so'mda)



### Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi



Avtotransport xizmatlarining umumiy hajmida yuklarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi.

2023- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **66,5 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil ushbu ko'rsatkich **67,6 %** ni tashkil etgan.


### Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari hajmi

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati <sup>1)</sup>	443,1	Angor	24,5
Termi sh	78,0	Uzun	23,2
Denov	51,7	Muzrabot	22,5
Sariosiyo	30,7	Qiziriq	22,4
Qumqo'rg'on	29,0	Oltinsoy	21,8
Sherobod	28,8	Termiz	21,4
Jarqo'rg'on	28,6	Boysun	19,9
Sho'rchi	25,4	Bandixon	15,2

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


## Hududlar kesimida avtomobil transport xizmatlarning o'sish sur'atlari (2023- yil yanvar-mart)



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **231,1** mlrd. soʻmga oshdi va **841,9** mlrd. soʻmga yetdi. Jami koʻrsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **24,5 %** ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʻati **123,6 %** ni tashkil etdi.

*Xizmatlar hajmi (trln. soʻmda)*




*Moliyaviy xizmatlar tarkibi  
(2023- yil yanvar-mart)*



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari (pul mablagʻlarini olish va qayta taqsimlash boʻyicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2023- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **95,1 %** ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari

(2023- yil yanvar-mart)



## Hududlar kesimida xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati	841,9	Termiz	19,7
Termiz sh.	379,9	Muzrabot	19,3
Denov	113,3	Qiziriq	18,7
Qumqo'rg'on	68,5	Angor	16,9
Sariosiyo	46,8	Oltinsoy	14,8
Jarqo'rg'on	44,6	Boysun	12,0
Sho'rchi	30,4	Bandixon	6,9
Sherobod	28,1		
Uzun	22,0		


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **327** birlikka yetdi, shundan **320** tasi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **176,2** mlrd. so'm darajasida qayd etildi va 2022- yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati **128,1** % ni tashkil etdi.

*Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)*





Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-mart)	Hajm, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Surxondaryo viloyati <sup>1)</sup>	176,2	100,0	128,1
Termiz sh.	38,4	21,8	127,0
Oltinsoy	8,5	4,8	117,1
Angor	6,6	3,7	124,9
Boysun	6,5	3,7	124,9
Bandixon	4,0	2,3	132,0
Muzrabot	7,5	4,3	126,7
Denov	23,1	13,1	131,5
Jarqoʻrgʻon	13,2	7,4	143,3
Qumqoʻrgʻon	13,4	7,6	138,8
Qiziriq	6,1	3,5	122,3
Sariosiyo	10,6	6,0	120,0
Termiz	6,0	3,4	118,7
Uzun	9,8	5,6	132,1
Sherobod	10,9	6,2	133,7
Shoʻrchi	11,6	6,6	123,5

<sup>1)</sup> hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2023- yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Termiz shahrida qayd etildi. Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **8,9** mlrd. soʻmga oshib, **38,4** mlrd. soʻmni tashkil etgan.

**Aloqa va axborotlashtirish  
xizmatlarining tarkibi**  
(2023- yil yanvar-mart)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush telekommunikatsiya xizmatlariga to'g'ri keldi – **95,9 %**.

**Taqqoslash uchun:** 2022-yilda bu ko'rsatkich **95,0 %** ni tashkil etgan.

**Telekommunikatsiya xizmatlari**


**Telekommunikatsiya xizmatlari** – bu ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

2023- yilning yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **168,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



2022- yilga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **129,3 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **4,9 %** ni tashkil etgan.

**Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)**



**Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi**

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati <sup>1)</sup>	168,9	Oltinsoy	8,4
Termiz sh.	33,8	Muzrabot	7,4
Denov	22,4	Angor	6,3
Qumqo'rg'on	13,2	Boysun	6,2
Jarqo'rg'on	13,1	Qiziriq	6,0
Sho'rchi	11,4	Termiz	5,9
Sherobod	10,8	Bandixon	4,0
Sariosiyo	10,3		
Uzun	9,7		

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami

	Hajmi, mlrd. so'mda	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>176,2</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:		
<b>AKT xizmatlari sektori</b>	<b>170,4</b>	<b>96,7</b>
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	168,9	99,1
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	1,5	0,9
<b>Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori</b>	<b>5,8</b>	<b>3,3</b>
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	4,0	68,9
Kino – videofilmlar va televideniye dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar	0,3	5,2
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,4	6,9
Boshqa axborot xizmatlari	1,1	19,0


## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

Mazkur seksiya kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyatni amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

*Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)*



**Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi  
xizmatlar hajmi**

(2023- yil yanvar-mart)


	Hajm, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	136,0	100,0	143,9
Termiz sh.	68,8	50,6	150,1
Oltinsoy	2,0	1,5	126,0
Angor	2,2	1,6	128,2
Boysun	1,6	1,2	125,2
Bandixon	0,5	0,4	117,0
Muzrabot	1,6	1,2	134,9
Denov	24,3	17,9	146,6
Jarqo'rg'on	3,8	2,8	131,8
Qumqo'rg'on	2,7	2,0	133,0
Qiziriq	2,5	1,8	123,4
Sariosiyo	3,2	2,3	138,1
Termiz	8,1	6,0	142,8
Uzun	2,6	1,9	127,6
Sherobod	5,8	4,2	145,2
Sho'rchi	6,3	4,6	127,6

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**

2023- yil 1-mart holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasida xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **474** birlikni tashkil etdi, shundan **396** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

**Sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** - bu sogʻliqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun koʻrsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Xizmatlar hajmi (mlrd. soʻmda)**



**Hududlar kesimida sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi**

(2023- yil yanvar-mart, mlrd.soʻmda)

Surxondaryo viloyati	52.9	Shoʻrchi	1.6
Termiz sh.	29.5	Sariosiyo	0.9
Denov	4.6	Uzun	0.8
Boysun	3.4	Angor	0,8
Sherobod	3.1	Qiziriq	0,7
Termiz	2.4	Oltinsoy	0,6
Jarqoʻrgʻon	2.1	Muzrabot	0,5
Qumqoʻrgʻon	1.7	Bandixon	0,2


## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1797** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 789** birlik kichik biznes subyektlaridir.


**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

*Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)*



**Hududlar kesimida  
yashash va ovqatlanish xizmatlarining  
o‘sish sur‘atlari  
(2023- yil yanvar-mart)**




**Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar**

**Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni** ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **75,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,2** % ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **105,2** % ni tashkil etgan.

**Xizmatlar hajmi (trln. so'mda)**



**Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi**

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati	75,6	•Qumqo'rg'on	4,1
Termiz sh.	14,2	Uzun	3,8
Denov	8,2	Qiziriq	3,8
Angor	6,9	Oltinsoy	3,3
Jarqo'rg'on	6,1	Boysun	3,2
Sho'rchi	4,9	Termiz	3,2
Sariosiyo	4,7	Muzrabot	3,1
Sherobod	4,1	Bandixon	2,0


<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




## Ijara xizmatlari

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

### Xizmatlar hajmi (trln. so'mda)



### Hududlar kesimida ijara xizmatlarining o'sish sur'atlari (% da)




## Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** – bu kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar) ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2023- yilning yanvar-mart oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **86,2** mlrd. so'm qayd etilib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,1** % ni tashkil etdi.

*Xizmatlar hajmi (trln. so'mda)*



### ***Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-mart, % da)***




### **Me'morchilik sohasidagi xizmatlar**

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

2022- yilga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi 2023- yilning yanvar-mart oylarida **47 896,4** mln. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,4** %ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **124,7** % ni tashkil etgan.

**Xizmatlar hajmi (mln. so'mda)**



**Hududlar kesimida me'morchilik sohasida xizmatlar hajmi**

(2023- yil yanvar-mart, mln. so'mda)

<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>47 896,4</b>	Jarqo'rg'on	458,8
Termiz sh.	38 384,6	Muzrabot	454,0
Denov	2 489,2	Boysun	412,5
Termiz	1 867,0	Sho'rchi	381,0
Sherobod	738,0	Uzun	346,7
Angor	548,2	Qiziriq	341,3
Qumqo'rg'on	536,6	Oltinsoy	302,9
Sariosiyo	474,3	Bandixon	161,4



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
Tel.: 76-225-65-91